



TA'LIM JARAYONIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING O'RNI VA AHAMIYATI

Maxamatova Sharofat Qudratilla qizi
NDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 1-kurs magistanti

Darajasining oshganligi, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga egaliklari, ta'lism-tarbiya jarayonida o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro faol hamkorlikning qaror topganligi bilan belgilanadi.

O'quvchi faolligini oshiruvchi "80\20 qoidasi bor, bu metodni ko'proq tadbirkor o'z Annotatsiya. Ushbu maqolada Hamkorlik texnologiyasidan foydalanib, o'quvchining ta'lism-tarbiya olish motivlarini rivojlanтирib borish hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlashning omillari ko'rsatilgan. Hamkorlik pedagogikasi orqali ananaviy darslardan uzoqlashgan holda noananaviy darslar tashkil qilishning pedagogik xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Hamkorlik pedagogikasi, hamkorlikda o'qitish, innovatsyon faoliyat, an'anaviy ta'lim noan'anaviy ta'lim, pedagogik hamkorlik, "o'qituvchi va o'quvchi", "hamkorlikda ishslash" kreativ pedagogika, innovatsyon metodlar.

Аннотация: В данной статье показаны факторы, обеспечивающие достижение высоких результатов с использованием технологии сотрудничества, развитие мотивации учащегося к получению образования и реализацию принципов гуманизации учебно-воспитательного процесса. Педагогические особенности организации нетрадиционных уроков в отрыве от традиционных изложены в педагогике сотрудничества.

Ключевые слова: Педагогика сотрудничества, совместное обучение, инновационная деятельность, традиционное обучение нетрадиционное обучение, педагогическое сотрудничество, "учитель и ученик", "совместная работа" креативная педагогика, инновационные методы.

Annotation: This article shows the factors of ensuring high achievement using collaborative technology, developing the educational motives of the student, as well as implementing the principles of humanization of the educational process. Through the pedagogy of cooperation, pedagogical features of the organization of non-traditional classes are described, moving away from traditional ones.

Keywords: Cooperation pedagogy, collaborative teaching, innovative activities, traditional education non-traditional education, pedagogical cooperation, "teacher and student", "working in cooperation" creative pedagogy, innovative methods.



KIRISH

2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 36-moddasida ta'kidlanishicha: "Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan".

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi davrida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar va tub islohotlar, albatta, hayotning o'zi taqozo qilgan u yoki bu muammolar va masalalar bilan to'qnashadi. Bu – qonuniy va tabiiy rivojlanish jarayoni. Shu bois, ta'limining barcha bosqichlaridagi boshqaruvchilarining vazifasi – mazkur muammolarga o'z vaqtida yechim topish va shu orqali butun tizimning rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Bu ishlarni amalga oshirishda uzluksiz ta'limning, ayniqsa, olyi ta'lim muassasalari va unda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarining yetarli kasbiy malakaga ega bo'lishlari, o'z ustida ishslashlari, pedagogikaning ilg'or tajribalaridan xabardor bo'lishlari alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan olganda hamkorlik pedagogikasi mohiyati va g'oyalarini bilish va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi

Asosiy qism. Hamkorlik pedagogikasi – an'anaviy o'qitishdan farq qilib, talaba bilan do'stona munosabat o'rnatishga qaratiladi. "Men" o'rniغا "Biz", ya'ni hamkorlikda – "subyekt" – "subyekt" munosabatlariga asoslangan holatda pedagogik faoliyat tashkil etiladi. "Hamkorlikda ishslash" tamoyili ta'lim oluvchi shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi. O'quv topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilaniladi, so'ngra uni bajarish uchun bolada o'z kuchiga ishonch tuyg'usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi talaba shaxsiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim-tarbiya jarayonida iliqlik, hamkorlik, o'z xohishi rodasini yagona maqsadga – ta'lim olishga yo'naltirishdir.

Xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida hamkorlikda o'qitish ("cooperativ learning") an'anaviy ta'limning muqobili sifatida keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik samaradorligi umumiy natija hisobiga ishtirokchilarining interfaolligi, o'zaro aloqadorligi va o'zaro mas'uliyati va uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o'zaro birgalikdagi harakatiga individual mas'uliyati va yo'nalganligini ta'minlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

An'anaviy ta'lim tizimi odatda standart ta'lim shakli bo'lgan o'quvchilarda qat'iy bilimlar to'plamini shakllantirishga qaratilgan. Qoida tariqasida, bunday munosabat o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zining ijodiy fazilatlarini





rivojlantirishda individual yondashuvni anglatmaydi. Hamkorlik pedagogikasi o'yinlar, munozaralar, aqliy hujumlar, jamoaviy musobaqalar va boshqalar kabi zamonaviy, qiziqarli ta'lim shakllari va vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Hamkorlik pedagogikasi konsepsiyasiga rioya qilgan o'qituvchilar va o'qituvchilar o'z darslarida o'quvchini darsning hammuallifi qilishga, unga ishonchni uyg'otishga va qo'rquv tuyg'usidan xalos bo'lishga intilishadi. Shuningdek, ular ma'lum bir shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olishadi, uni guruhning bir qismi emas, balki shaxs sifatida qabul qilishadi. Hamkorlik pedagogikasining yana bir prinsipi – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti, ularning qarashlariga do'stona va ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, g'oyalar va fikrlarni rag'batlantirish, hatto yomon yoki noto'g'ri, faoliyatni rivojlantirish va yechimlarni topishda hamkorlik qilishdir. Hamkorlik pedagogikasi "yaratuvchanlik" xususiyatiga ko'ra "kreativ pedagogika"ga yaqin. Pedagog navatorlarning fikricha hamkorlik pedagogikasi har qanday bolani tabiiy holda qabul qilish zarur. Bunda o'qituvchi bolani individualligini saqlab qolishga yordam beradi va uning aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun motivni uyg'otadi. Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish ta'lim muassasalari amaliyotiga muayyan o'zgarishlar kiritishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, uning samarasini ta'lim mazmunining boyitilishi va sifatining yaxshilanishi, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasining oshganligi, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga egaliklari, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'zaro faol hamkorlikning qaror topganligi bilan belgilanadi. Pedagogik hamkorlik jarayonida o'qituvchi bilan talaba (o'quvchi) faoliyati uyg'unlashadi, ijodiy xarakter kasb etadiki, u ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatidagi o'ziga xos har bir jihatni hisobga olishni taqozo qiladi. "O'qituvchi-o'quvchi" munosabatlaridagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma'naviy dunyoda bir-biriga samimiylilik, o'zaro bir-birini mustahkam tushunish, kattalar va bolalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati g'oyasi asosida tashkil etiladi. Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish ta'lim muassasalari amaliyotiga muayyan o'zgarishlar kiritishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, uning samarasini ta'lim mazmunining boyitilishi va sifatining yaxshilanishi, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari faoliyatida qo'llaydigan qoida hisoblanadi, ta'lim jarayonida bu 80 foiz o'quvchi darsda faol qatnashib o'qituvchi 20 foiz gapirsa dars samaradorligi 100 foiz bo'lar ekan.

Xulosa. Hamkorlik pedagogikasi vositasi sifatida o'yin, hikoyalar, o'tkir ijtimoiy mavzularda suhbat, munozara, tajriba almashish, taniqli insonlar bilan uchrashuv, yechimlarni topish, aqliy hujum va boshqa ko'p narsalardan foydalanish mumkin. Ammo ushbu vositalardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun o'qituvchi avval o'z amaliyotida barcha samarali usullarni mohirona birlashtirib, har tomonlama o'ylashni o'rganishi kerak. Kerakli natijaga erishish uchun o'qituvchi o'z ishida nafaqat mashg'ulotlarni olib borishning



odatiy usullari va vositalarini qo'llashi, balki ijodiy fikrlash va aloqa ko'nikmalaridan foydalangan holda tashabbus ko'rsatishi kerak. Uning vazifasi o'quv jarayonini har bir a'zosi unga qiziqish va ilhomni yo'qotmasdan iloji boricha jalg qilish uchun qurishdir.

Hamkorlikda o'qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- o'quvchining o'rganish bilim olish jarayonini boyitadi;
- o'quvchilarni kreativ fikrlashga undaydi ,ijodiy faollikni vujudga keltiradi, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plamini beradi;
- o'quvchilarda yangi mavzuni va o'quv materyalini o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi;
- o'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va fiklash doirasini kengaytirish, dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.
- o'quvchi faolligini oshiradi.

Bugungi kunda hamkorlik pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga doir yetakchi g'oyalari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: o'zaro harakat, ijodiy hamkorlik; muvaffaqiyatga erishish; individuallik; o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini takomillashtirish. Hamkorlik pedagogikasi asosida talaba-o'quvchilarda muloqotga kirishuvchanlik, ishchanlik, yetakchilik, keng ko'lamli, aniq izchillikka ega bo'lмагan materiallarni tartibga solish va tahlil qilish, axborotlar yetarli bo'lмагan sharoitlarda ularni to'ldirish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati ham vujudga keladi. Mamlakatimiz ta'lim tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va innavatsiyon g'oyalardan noananaviy darslardan foydalanish orqali hamkorlik pedagogikasining ilg'or uslublarini joriy etish asosida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng foydalanishlarini ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratish vazifalari yetakchilik qilmoqda. Binobarin, hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarni hozirgi kun talabiga to'la javob bera oladigan yetuk salohiyatli etib tayyorlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - T. 2020, 3 b
2. Абдуллаева Ш.А. Ҳамкорлик педагогикаси. – Т.: Фан ва технология, 2017
3. Инақов Қ.Қ. Ҳамкорлик педагогикаси асосида таълим-тарбия сифатини такомillashtiriш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертatsияси автореферати. –Наманган: 2019. 18. Қодирова З.Р., Шарипова А.Ж.,



Алимасов В.А., Каримова Э.Г., Мадиева Ш. Ёшлар фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалал.

4.Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.

5. Hamkorlik pedagogikasi orqali tarbiya jarayoniga pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishning pedagogik asoslari. Ugulxon Ergashboyevna Nurullayeva

6.Hamkorlik asosida umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning pedagogic asoslari Самигова, Комила Абдурауфовна

7.Pedagogik faoliyatda hamkorlik pedadagogikasining o'rni va ahamiyati 1Axatova Durdona Aktamovna 2Axatova Xilola Aktamovna <https://doi.org/>

